

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**«OILA VA GENDER» ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**YANGIBOYEVA DILDORAXON RAHMON QIZI**

**KO‘P BOLALI OILALARDAGI SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING  
IJTIMOIY-PSIXOLOGIK INDIKATORLARI**

**19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
психологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
psychological sciences**

<b>Yangiboyeva Dildoraxon Rahmon qizi</b> Ko‘p bolali oilalardagi shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy-psixologik indikatorlari.....	3
<b>Янгибаева Дилдорахон Рахман кизи</b> Социально-психологические индикаторы межличностных отношений в многодетных семьях.....	23
<b>Yangibayeva Dildorakhon Rakhmon kizi</b> Social and psychological indicators of interpersonal relations in large families .....	45
<b>E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati</b> Список опубликованных работ List of published works.....	49

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**«OILA VA GENDER» ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**YANGIBOYEVA DILDORAXON RAHMON QIZI**

**KO‘P BOLALI OILALARDAGI SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING  
IJTIMOIY-PSIXOLOGIK INDIKATORLARI**

**19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/P885 raqami bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya «Oila va gender» ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz) va «ZiyoNet» axborot ta’lim portalidagi ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Abduraxmanova Zuxra Erkinovna**  
psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Karimova Vasila Mamanosirovna**  
psixologiya fanlari doktori, professor

**Ibaydullayeva Umida Rustamjonovna**

psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Buxoro xalqaro universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2021.P.26.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: [tdpu\\_kengash@edu.uz](mailto:tdpu_kengash@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. ( \_\_\_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan.) (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2025 yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**F.A.Akramova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, psixologiya fanlari  
doktori (DSc), professor

**N.B.Atabayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, psixologiya  
fanlari doktori (DSc), professor

**Z.T.Nishanova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, psixologiya fanlari doktori,  
professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon internalizatsiyasi jarayonida yuzaga kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyalar odatiy turmush tarzining shakllanishiga, axloqiy-me'yoriy qadriyatlar vektorining o'zgarishiga va demografik holatga sezilarli darajada ta'sir etmoqda. China General Social Survey (CGSS) tomonidan olib borilgan tadqiqotda «Oila hajmi shaxslararo ishonch darajasiga ijobiy prognoz qilinuvchi ta'sir ko'rsatadi, shaxslararo ishonch aloqalarida ijobiy o'zaro ta'sir (interaksiya) oilaviy qo'llab-quvvatlovchi omil sifatida vositachilik funksiyasini bajarishi mumkin»<sup>1</sup> ekanligiga oid ilmiy xulosalar ilgari surilgan. Bu borada oilaviy munosabatlardagi reproduktiv vazifa bo'lgan - farzand ko'rish motivatsiyasi bilan bog'liq qadriyatlarning transformatsiyasi kuchayib borayotgan hozirgi murakkab sivilizatsion bosqichda ko'p bolali oilalarning ijtimoiy-psixologik muhiti dinamikasidagi strukturaviy o'zgarishlarni kompleks yondashuv asosida tadqiq etish masalalari dolzarb ahamiyatli bo'lib qolmoqda.

Jahon oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida globallashtirish davrida ko'p bolali oilalardagi shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy-psixologik indikatorlarini aniqlashga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ko'p bolali oilalar zamonaviy jamiyat uchun juda kam uchraydigan, atipik va hali ham kamroq o'rganilgan hodisa bo'lib, murakkab tizimli shakllanish sifatida qaralgani bois, mazkur ko'rinishdagi oilalarning psixologik xususiyatlariga bog'liq masalalar o'z dolzarbligini oshirmoqda. Ko'p bolali oilalardagi juftliklarning o'zaro munosabatlari, sibling maqom, farzand ko'rish motivi, oilaviy hayotdan qoniqish ko'rsatkichini, har bir oila uchun oila farovonligi, mas'uliyatli ota-onalikni ta'minlash va ijtimoiy barqarorlikni saqlash uchun shart-sharoitlar yaratish va ko'p bolali oilalardagi shaxslararo munosabatlarning o'ziga xos jihatlari yuzasidan ilmiy-amaliy tadqiqot ishlarini olib borish dolzarb ahamiyatli bo'lib, uni olib borish zarurati yuzaga keladi.

Yangi O'zbekiston so'nggi yillarda ko'p bolali oilalar ulushining ortib borish tendensiyasi kuzatilmoqda, ya'ni, Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, respublikamizda to'rt va undan ko'p bolali uy xo'jaliklari ulushi 8,5% ni tashkil etgani holda ko'p bolali oilalar soni 620 821 dan iborat ekanligi qayd etilgan<sup>2</sup>. Shu bois, ko'p bolali oilalar mustahkamligini barqarorlashtirish, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, ko'p bolali oilada voyaga yetayotgan shaxslarni barkamol qilish mexanizmlarining uzviyligini ta'minlashning ijtimoiy, tibbiy, huquqiy asoslari mustahkamlangan: «Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlarni yaratadi»<sup>3</sup>. Bu borada oiladagi har bir a'zoning psixologik barqarorligi, salomatligi, hayotiy farovonligini, o'z salohiyatini ro'yobga chiqaradigan yetuk shaxsni kamol toptirish, ruhiy salomatligi, farovonligi va uzoq umr ko'rishini ta'minlashni ustuvor vazifalar sifatida zarur chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot muhim asos bo'la oladi.

---

<sup>1</sup> <https://www.hanspub.org/journal/AP.html>

<sup>2</sup> <https://stat.uz/uz/>

<sup>3</sup> <https://lex.uz/uz/docs/>

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 1-mayda O‘RQ-837-son «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son «O‘zbekiston – 2030 Strategiyasi to‘g‘risida», 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida», 2023-yil 21-dekabrda PF-81-son «Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi, 2023-yil 21-dekabrda PF-209-son «Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi, 2023-yil 21-dekabrda PF-208-son «Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi, 2022-yil 7-martda PF-87-son «Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonlari, 2022 yil 1-martda PQ-146-son «Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi, 2023-yil 21-dekabrda PQ-401-son «Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi, 2023-yil 21-dekabrda PQ-402-son «O‘zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-martda 145-son «Xotin-qizlar muammolarini o‘rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2024-yil 12-avgustda 500-son «O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatini tartibga solish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida»gi Qarori va sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsion tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Jahonda oilaning ijtimoiy, siyosiy, ma‘naviy hayotdagi o‘rni, oilaga nisbatan shakllangan ijtimoiy munosabat, oila qurish motivlari, oilaviy muhitning shaxs barqarorligiga ta‘siri kabi masalalar ko‘plab ilmiy tadqiqotlar uchun asos bo‘lib xizmat qilgan.

O‘zbekiston psixolog olimlaridan F.A.Akramova, D.U.Abdullayeva, Z.E.Abduraxmonova, X.U.Abdusamatov, Sh.R.Barotov, D.Sh.Barotova, R.X.Dushanov, V.M.Karimova, X.K.Karimov, N.X.Lutfullayeva, M.X.Fayziyeva, G.Niyazmetova, D.M.Nuraliyeva, Z.A.Rasulova, F.R.Ro‘ziqulov, M.S.Salayeva, R.S.Samarov, O‘.B.Shamsiyev, N.A.Sog‘inov, G‘.B.Shoumarov, B.M.Umarov, E.Sh.Usmanov, M.A.Utepbergenov, G.T.Yadgarova, G.S.Yunusova, G.Z.Ziyautdinova va boshqalar o‘z tadqiqotlarida oilaga psixologik xizmat ko‘rsatish, zamonaviy milliy oila va uning psixologik xususiyatlari, oilaviy rollar haqidagi tasavvurlarning shakllanishi, yosh oilalarda yuzaga keladigan er-xotin nizolarining etnik xususiyatlari, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bilan bog‘liq o‘zbek

etnopsixologiyasi muammolari va ba'zi jihatlarini ilmiy tadqiq etganlar. Lekin, ko'p bolali oilalardagi shaxslararo munosabatlarning O'zbekiston etnomadaniy muhitida aks ettirilishi va transformatsiyasi masalalari ijtimoiy-psixologik jihatdan yaxlit tarzda tadqiq etilmagan. Bu esa tadqiqotimizning ilmiy ahamiyatini yanada oshirishga imkon beradi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari psixolog olimlaridan Yu.Ye.Aleshina, G.M.Andreyeva, T.N.Andreyeva, A.I.Antonov, E.M.Asedova, L.L.Balandina, N.N.Bogomolova, A.B.Chernikova, N.F.Divitsova J.S.Djandosova, V.N.Drujinin, I.I. Dyomina, S.I.Golod, Ye.P.Ilin, P.P.Kalinin, O.A.Karabanova, G.J.Karakayeva, J.A.Korostileva, T.B.Malistova V.D.Moskalenko, N.L.Moskvicheva, B.S.Myursteyn, G.K.Navaytis, N.N.Obozov, B.D.Parigin, L.P.Petuxova, G.R.Popova, L.B.Shneyder, Ye.V.Shoroxova, Ye.V.Zmanovskaya, A.N.Volkova, M.O.Yermixinalar ilmiy tadqiqotlarida oilaviy munosabatlarni, ko'p bolali oilalardagi siblinglararo muloqot, farzandlarning psixologik rivojlanish xususiyatlari bo'yicha ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishgan.

Xorijiy psixolog olimlaridan A.Adler, N.Balbo, C.Berghammer, J.H.Bossard, M.J.Carlson, L.Coppola, A.Isen, S.Jiao, S.Keim, T.C.Martin, R.Narchal, V.K.Oppenheimer, S.Pikalkova, A.J.Rijken, D.Van de Kaa, M.Wagner, C.F.Westoff va N.H.Wolfinger kabi olimlar tomonidan ko'p bolali oilalar, mazkur oila tipida voyaga yetayotgan farzandlarning psixologik rivojlanish xususiyatlarini ilmiy-amaliy tadqiq etganlar.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsion tadqiqot ishi «Oila va gender» ilmiy-tadqiqot insitutining JHBL 3-sonli «Otalarning oilaviy hayot va farzand tarbiyasidagi o'rnini ilmiy tadqiq etish» mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan (2024-y.).

**Tadqiqotning maqsadi** ko'p bolali oilalardagi shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy-psixologik indikatorlarini aniqlash asnosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** etib quyidagilar belgilangan:

ko'p bolali oilalardagi shaxslararo munosabatlar dinamikasiga qadriyatlar yo'nalishi, oilaviy muhit, oilaviy hayotdan qoniqqanlik darajasining ta'sirini aniqlash;

ko'p bolali oilalardagi shaxslararo munosabatlarning namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash;

ko'p bolali oilalardagi shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy-psixologik indikatorlarini ishlab chiqishda er va xotinning ota-onalik rolga ustanovkasi, oilaviy muhit shakli, rollar taqsimlanishi, qadriyatlar yo'nalishi ta'sirini o'rganish;

ko'p bolali oilalarda kamol topayotgan o'smir yoshdagi farzandlarning psixologik rivojlanish xususiyatlarini empirik tadqiq etish.

**Tadqiqotning obyekt**i sifatida Buxoro, Namangan, Qashqadaryo hamda Toshkent viloyatlaridan jami 715 nafar respondent tanlab olingan bo'lib, ularning 296 nafari ko'p bolali oila vakillari, 214 nafari kam bolali oila vakillarini tashkil etdi. Tadqiqotda 255 nafar erkaklar, 255 nafar ayollar, shuningdek 13-17 yosh oralig'idagi

205 nafar o'smirlar (102 nafari o'g'il bolalar, 103 nafari qiz bolalar) respondentlar sifatida ishtirok etishdi.

**Tadqiqotning predmetini** ko'p bolali oilalardagi shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy-psixologik indikatorlari tashkil etdi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda «Ko'p bolali oilalardagi shaxslararo munosabatlarni o'rganish»ga qaratilgan mualliflik ijtimoiy-psixologik so'rovnomasi (Z.E.Abduraxmanova, D.R.Yangiboyeva), Sh.Shvartsning «Qadriyatlar yo'nalishi» metodikasi (E.G'.G'oziyev modifikatsiyasi), E.S.Shefer va R.K.Bellarning «Ota-onalik roliga ustanovkasi va munosabatini aniqlash» (PARI) metodikasi (M.S.Salayeva modifikatsiyasi) metodikasi, T.Lirining «Shaxslararo munosabatlar diagnostikasi» testi (E.G'.G'oziyev modifikatsiyasi), Yu.Alyoshina, I.Gozman, Ye.Dubovskayalarning «Oilada rollar taqsimoti» (G'.B.Shoumarov modifikatsiyasi), V.Stolin, T.Ramanov, G.Butenkolarning «Oilaviy hayotdan qoniqish» (G'.B.Shoumarov va N.A.Sog'inov modifikatsiyasi), S.Kupriyanovning «Oilaviy muhitni o'rganish shkalasi» (M.X.Fayziyeva modifikatsiyasi), R.B.Kettelning «Shaxs xususiyatlarini o'rganuvchi 16 omilli shaxs so'rovnomasi»ning (C varianti) (A.I.Rasulov modifikatsiyasi)dan foydalanildi. Olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi matematik-statistika metodlaridan Mann-Uittni – U mezoni, Kruskal-Uollis – H mezoni va Ch.Spirmenning noparametrik korrelyatsion – r tahlil mezoni orqali tasdiqlandi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ko'p bolali oilalardagi shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy-psixologik indikatorlari shakllanishiga oilaviy hayotdan qoniqqanlik indeksi, oilaviy ustanovkalar va qadriyatlar differentsiatsiyasi ta'sir etishi natijasida mehribonlik qadriyatlariga asoslangan shaxslararo munosabatlar tufayli «emotsional yaqinlik», «empatiya», «persepsiya» interpersonal aloqalarning psixologik induksiyasi vazifasini bajarishi isbotlangan;

ko'p bolali oilalardagi shaxslararo munosabatlarning namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar sirasiga jinsiy hayotdan juftliklarning qoniqqanlik darajasi, ustanovkalar, uy-ro'zg'or ishlari, farzandlar tarbiyasida rollarning taqsimlanishi natijasida konstant sibling munosabatlar ko'lami, hayot mazmunining yo'nalganligi kirishi dalillanib, ekspressivlik, faol dam olishga, madaniy-intellektual orientatsiya interpersonal munosabatlarning «psixologik uyg'un» bo'lishi isbotlangan;

ko'p bolali oilalardagi shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy-psixologik indikatorlarini ishlab chiqishda etnopsixologik hamda ijtimoiy-psixologik jihatidan farqlanish mavjudligi natijasida, juftliklar konkordantligi omili tufayli parasimpatik munosabatlardagi o'ziga ishonch, fikrlar erkinligi, qat'iyatlilik kabi sifatlarning ko'p bolali oilalardagi erkaklarda yuqori ko'rinish olishi oilaviy muammolarni konstruktiv tarzda hal qilish, bir so'zli bo'lish orqali yakunlovchi qarorlar qabul qilish hamda imkoniyatlarini realizatsion prognoz qilgan holda farzandlar sonini ko'paytirishdan qo'rqmaslikda ifodalanishi dalillangan;

ko'p bolali oilalardagi farzandlarda oilaviy mas'uliyatni his qilish hisobiga, xavotirlanish, shaxslararo munosabatlarda moslashuvchanlik, nizoli vaziyatlardan qochish, muloqotga intilishning balandligi ortidan aloqa, do'stlar orttirishga ehtiyoj

yuqori ko‘rinish olishi natijasida siblinglararo munosabatlar ritmikasında o‘z ichki potentsiali hamda da‘vogarlik darajasi o‘rtasida noproporsional munosabat ortidan reallikdan qochish hisobiga xayolparastlikning ustun bo‘lishi, berilgan vazifalarni uddasidan chiqa olmagan taqdirda jazolanishdan qochishning yuqori bo‘lishi yolg‘on gapirishga moyillik kabi omillar orqali statik mezonlarning mexanizmlari takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

ko‘p bolali oilalardagi shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy-psixologik indikatorlari motivatsion, emotsional, konativ komponentlar kombinatsiyasi asosida treninglar dasturi tizimlashtirilgan va aprobatsiya qilingan;

ko‘p bolali oilalardagi shaxslararo munosabatlarning psixologik qonuniyatlarini aniqlashga doir ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma ishlab chiqilgan va amaliyotga kiritilgan;

ko‘p bolali oilalardagi shaxslararo munosabatlar labilligi, ritmikasing etnomadaniy, jins va kollegial-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan hamda amaliyotga joriy etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot mobaynida olingan metodikalarning psixometrik hamda psixodiagnostik talablarga to‘la rioya etilishi, to‘plangan ma‘lumolarning ishonchliligi, tadqiqot obyektining O‘zbekiston hududida tanlanganligi, olingan ma‘lumotlar matematik-statistik mezonlar asosida psixodiagnostik ishonchlilikni topganligi, xulosa va takliflarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalar tahlilining vakolatli organ hamda davlat muassasalari tomonidan tasdiqlanligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati:** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati tadqiqot davomidagi ilmiy tahlillar psixologiya, etnopsixologiya, oilaviy munosabatlar psixologiyasi, bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi, oilaviy munosabatlar psixoterapiyasi fani oldidagi zamonaviy muammolardan bo‘lgan ko‘p bolali oilalardagi shaxslararo munosabatlarning ifodalanishi va transformatsiyasini etnopsixologik, ijtimoiy-psixologik tahlil qilish xususiyatlarini o‘rganishga yo‘nalganligi bilan shu sohada ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilarning ilmiy faoliyatiga ma‘lum darajada hissa qo‘shishi bilan belginaladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati olingan empirik ma‘lumotlar asnosida oliy ta‘lim muassasalarida bakalavriat va magistraturada «Ijtimoiy psixologiya», «Etnopsixologiya», «Yosh davrlari psixologiyasi», «Muloqot psixologiyasi», «Oilaviy munosabatlar psixologiyasi», «Oila demografiyasi», «Oila psixoterapiyasi va psixotexnikasi» kabi o‘quv kurslarida ma‘ruza va seminar mashg‘ulotlarini olib borishda va mavzu doirasida yangi tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi:** Ko‘p bolali oilalardagi shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy-psixologik indikatorlari yuzasidan o‘tkazilgan ilmiy-tadqiqot natijalari asosida:

ko‘p bolali oilalardagi shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy-psixologik indikatorlari shakllanishiga oilaviy hayotdan qoniqqanlik indeksi, oilaviy ustanovkalar va qadriyatlar differentsiatsiyasi ta‘sir etishi natijasida mehribonlik qadriyatlariga asoslangan shaxslararo munosabatlar tufayli «emotsional yaqinlik»,

«empatiya», «persepsiya» interpersonal aloqalarning psixologik induksiyasi vazifasini bajarishi isbotlanganligiga oid ilmiy natijalar O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-oktyabrdagi PM-240-sonli buyrug‘i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 8-oktyabrdagi PM-240a-sonli ma’lumotnomasi). Natijada ko‘p bolali oilalardagi shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy-psixologik indikatorlari qadriyatlar differentsiatsiyasi asnosida shakllantirilgan;

ko‘p bolali oilalardagi shaxslararo munosabatlarning namoyon bo‘lishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar sirasiga jinsiy hayotdan juftliklarning qoniqqanlik darajasi, ustanovkalar, uy-ro‘zg‘or ishlari, farzandlar tarbiyasida rollarning taqsimlanishi natijasida konstant sibling munosabatlar ko‘lami, hayot mazmunining yo‘nalganligi kirishi dalillanib, ekspressivlik, faol dam olishga, madaniy-intellektual orientatsiya interpersonal munosabatlarning «psixologik uyg‘un» bo‘lishi isbotlanganligiga oid yangiliklar «Oila va gender» ilmiy-tadqiqot institutining «Otalarning oilaviy hayot va farzand tarbiyasidagi o‘rnini ilmiy tadqiq etish» mavzusida amaliy loyiha rejasiga kiritilgan («Oila va gender» ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 13-noyabrdagi №01-09/2372-sonli ma’lumotnomasi). Natijada ko‘p bolali oilalardagi shaxslararo munosabatlarning namoyon bo‘lishiga ta’sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillar tizimlashtirilgan;

ko‘p bolali oilalardagi shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy-psixologik indikatorlarini ishlab chiqishda etnopsixologik hamda ijtimoiy-psixologik jihatidan farqlanish mavjudligi natijasida, juftliklar konkordantligi omili tufayli parasimpatik munosabatlardagi o‘ziga ishonch, fikrlar erkinligi, qat’iyatlilik kabi sifatlarning ko‘p bolali oilalardagi erkaklarda yuqori ko‘rinish olishi oilaviy muammolarni konstruktiv tarzda hal qilish, bir so‘zli bo‘lish orqali yakunlovchi qarorlar qabul qilish hamda imkoniyatlarini realizatsion prognoz qilgan holda farzandlar sonini ko‘paytirishdan qo‘rqmaslikda ifodalanishi dalillanganligiga oid yangiliklar «Oila va gender» ilmiy-tadqiqot institutining «Otalarning oilaviy hayot va farzand tarbiyasidagi o‘rnini ilmiy tadqiq etish» mavzusida amaliy loyiha rejasiga kiritilgan («Oila va gender» ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 13-noyabrdagi №01-09/2372-sonli ma’lumotnomasi). Natijada ko‘p bolali oilalardagi shaxslararo munosabatlarning namoyon bo‘lishiga ta’sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillar tizimlashtirilgan;

ko‘p bolali oilalardagi farzandlarda oilaviy mas’uliyatni his qilish hisobiga, xavotirlanish, shaxslararo munosabatlarda moslashuvchanlik, nizoli vaziyatlardan qochish, muloqotga intilishning balandligi ortidan aloqa, do‘stlar orttirishga ehtiyoj yuqori ko‘rinish olishi natijasida siblinglararo munosabatlar ritmikasida o‘z ichki potentsiali hamda da’vogarlik darajasi o‘rtasida noproportional munosabat ortidan reallikdan qochish hisobiga xayolparastlikning ustun bo‘lishi, berilgan vazifalarni uddasidan chiqa olmagan taqdirda jazolanishdan qochishning yuqori bo‘lishi yolg‘on gapirishga moyillik kabi omillar orqali statik mezonlarning mexanizmlari takomillashtirilganligiga oid yangiliklar O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-oktyabrdagi PM-240-sonli buyrug‘i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 8-

oktyabrdagi PM-240a-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ko'p bolali oilalarda kamol topayotgan o'smir yoshli farzandlarning psixologik rivojlanish xususiyatlarining statik mezonlari aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqotning natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama etilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqotning asosiy natijalari bo'yicha 1 ta uslubiy qo'llanma, 22 ta ilmiy maqola, 12 tasi O'zbekiston Respublikasi OAK tavsiya etgan jurnallarda, shu jumladan, 3 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan. Tadqiqot natijalari bo'yicha Adliya Vazirligi huzuridagi Intellektual mulk Agentligining 1 ta guvohnomasi olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, to'qqizta paragraf, bob bo'yicha xulosalar, umumiy xulosa, amaliy takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, glossariy, ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 156 betni tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalar belgilangan, tadqiqot usullari, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotda olingan natijalarning ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, ularning amaliyotda tatbiq etilganlik holati, ilmiy nashrlarda e'lon qilinishi, dissertatsion ishning tuzilishi yuzasidan ma'lumot keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Ko'p bolali oila fenomenining nazariy-metodologik jihatdan fanlar integratsiyasi doirasida tadqiq etilishi**» deb nomlanib, ushbu bobda ko'p bolali oilalardagi shaxslararo munosabatlar ijtimoiy-psixologik kategoriya sifatida, xorij olimlari tomonidan ko'p bolali oilalarni tadqiq etishning nazariy asoslari hamda sharq mutafakkirlari asarlarida ko'p bolali oilalardagi shaxslararo munosabatlar fenomenining yoritilganlik holati bayon etilgan. Ko'p bolali oilalar o'tgan asrning 90-yillar boshidan boshlab psixologik tadqiqot obyektiga aylandi. Ota-onalarning psixologik xususiyatlarini va ko'p bolali oilalarda oila ichidagi munosabatlarning xususiyatlarini o'rganish faqat bir nechta xorijiy tadqiqotlarda amalga oshirildi. Xorij, xususan, MDH davlatlari psixologiyasida bu hodisalar amalda o'rganilmagan. Bu esa, zamonaviy jamiyatda ko'p bolali oilaning muhim ijtimoiy roli va bu hodisaga psixologik tadqiqotlar yo'qligi o'rtasidagi qarama-qarshilikni keltirib chiqaradi. I.S.Demina ta'kidlaganidek, ko'p bolali oilalarda bolaning individualligini rivojlantirishda turli omillarning (iqtisodiy, biologik, psixologik) rolini o'rganishga imkon beruvchi maxsus model bo'lib ishlaydi. Ko'p bolali oilalarning psixologik tadqiqotlarida tavsiflangan omillar orasida quyidagilar ajralib turadi:

konfiguratsiya parametrlari (oilalarning kattaligi, tug'ilish tartibi, bolalar tug'ilishi orasidagi intervallar);

rivojlanishning ekologik sharoitlari xususiyatlari (oilaning ijtimoiy-iqtisodiy holati, intellekti, ota-onalarning ta'limi, madaniy farqlar, shaxslararo munosabatlar);

oila a'zolarining individual xususiyatlari (yoshi, bolalar va ota-onalarning jinsi).

Psixolog N.N.Obozov oilaga yo'naltirilganlikni, birlikka intilish va oila ahilligini ko'p bolali oilaning asosiy belgilari sifatida belgilaydi. Muallif fikriga ko'ra, oilaning kattalashishi bilan uning a'zolari o'rtasidagi munosabatlar o'zgaradi, rollar tarkibi "bola-bola" tipidagi turli yoshdagi munosabatlar tufayli kengayadi. Ko'p bolali oilalarda ajralishlar nisbatan kamroq qayd etiladi, biroq ushbu hodisa sodir bo'lgan taqdirda ham bu faqat erning iqtisodiy yoki axloqiy-psixologik qobiliyatsizligi tufayli yuzaga kelgan, deya qaraladi.


E.V.Foteevaning tadqiqotlariga ko'ra, ko'p bolali bo'lish motivi tabiiy bo'lib, bunday tipdagi oilalar boshidanoq turmush o'rtoqlarning bir-biriga, oilaviy kelajagiga bo'lgan ishonchi bilan ajralib turadi, bu esa ularga ko'p farzandli bo'lishga imkon beradi. Ko'p bolali oila bolalar, kattalar va kichiklar, aka-uka va opa-singillar o'rtasidagi turli xil munosabatlarga boy. Bu shaxsni shakllantirish va yosh avlodni ijtimoiy faoliyatda, jumladan, nikoh va ota-ona rollarida ishtirok etishga tayyorlashda katta ahamiyatga ega.

Ya.A.Artsimovich ko'p bolali ota-onalarga xos bo'lgan mas'uliyatsizlik va beparvolik ko'pincha taqdirning rahm-shafqatiga tashlab qo'yilgan bolalarning qarovsiz qolishiga, ko'chada mustaqil ravishda yurishiga olib kelishini ta'kidlab o'tgan (ota-onalar bolaning qanday kompaniya ekanligini nazorat qilmaydilar). Ota-onalarning bunday holatlarga beparvo munosabati tufayli bolalarning xulq-atvorida muammolar, jumladan, jarohatlar, kutilmagan vaziyatlar, bezorilik yoki spirtli ichimliklarni iste'mol qilish kabilar yuzaga keladi. Ko'p bolali oilalar farzandlari ba'zi hollarda ota-onalaridan qo'rqishgani tufayli, uydan tashqarida munosabatlarni izlaydilar (uydan qochib ketishadi, disfunktsiyali bolalar va turli xil xatti-harakatlari bilan to'plangan guruhlariga kiradilar). Ota-onalar har doim va hamma joyda farzandlari uchun mas'uldirlar. Oilani rejalashtirish va yaratish, bir-ikkita emas, balki ko'proq farzand tarbiyalash masalasiga jiddiy va ehtiyotkorlik bilan yondashish kerak.

**«Ko'p bolali oilalardagi shaxslararo munosabatlarni o'rganish metodologiyasi»** sifatida nomlanuvchi dissertatsiyaning ikkinchi bobida ko'p bolali oilalardagi shaxslararo munosabatlarni tadqiq etishning psixodiagnostik-metodik asoslari, ko'p bolali oilalardagi ijtimoiy tasavvurlarga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillar tahlili hamda ko'p bolali oilalardagi shaxslararo munosabatlar dinamikasining ijtimoiy-psixologik qirralari empirik tadqiqot natijalari aprobatsiyasi asnosida tahlil etilgan.


Oilani multifunksional institut sifatida tadqiq etish, undagi shaxslararo munosabatlar hamda oila haqida «biz» tasavvurini oila a'zolari qarashlarida aks ettirishning psixologik, ijtimoiy omillari kabi masalalarda yakdilliklar ifodalangan. Tadqiqotning metodologik asosini shaxsning munosabatlar konsepsiyasi (V.N.Myasishchev), oilaga psixologik o'zaro yordam tamoyillari (K.Rodjers), personalizatsiya konsepsiyasi (A.V.Petrovskiy), shaxslararo o'zaro idrokning faoliyatga asoslangan vositachiligi tamoyili (G.M.Andreyeva), tizimlilik prinsipi (B.G.Ananyev, B.F.Lomov), psixik rivojlanish tamoyili (S.L.Rubinshteyn), subyekt faoliyati prinsipi (A.N.Leontyev, K.A.Abulxanova-Slavskaya), ijtimoiy jarayonlarni

ilmiy bilish metodologiyasiga tizimli yondashish (V.G.Afanasyev, I.V.Blauberg, V.N.Sadovskiy, Yu.G.Yudin va boshqalar) kabilar tashkil etdi.



**1-rasm. «Sizningcha ko'p farzandli oilalarda ota-ona va bola munosabatlari qanday ko'rinishda bo'ladi?» savoli javoblari (% da)**

1-rasmda «Sizningcha ko'p farzandli oilalarda ota-ona va bola munosabatlari qanday ko'rinishda bo'ladi?» savoliga ko'p bolali oilalar tomonidan berilgan javoblarga ko'ra, ota pul topish bilan band, ona farzand tarbiyalaydi deb sanovchilar 62 nafar (20,90%), ota-ona bolalarga birdek mehr berolmaydi deyuvchilar 48 nafar (16,20%), ota-ona farzandlarining ko'pligi hisobiga ularga vaqtni teng ajratmaydi javobini 24 nafar (8,10%), ota-ona va bolalar bir-birlarining vaziyatlarini to'g'ri tushunadi, bolalar ota-onalarga mehribon bo'ladi tasdig'ini 162 nafar (54,70%) sinaluvchi o'z javoblarida; kam bolali oila vakillarining javoblariga asosan ota pul topish bilan band, ona farzand tarbiyalaydi deb sanovchilar 43 nafar (20,10%), ota-ona bolalarga birdek mehr berolmaydi deyuvchilar 25 nafar (11,70%), ota-ona farzandlarining ko'pligi hisobiga ularga vaqtni teng ajratmaydi javobini 115 nafar (53,70%), ota-ona va bolalar bir-birlarining vaziyatlarini to'g'ri tushunadi, bolalar ota-onalarga mehribon bo'ladi tasdig'ini 31 nafar (14,5%) sinaluvchi ifodalagan. Foizlar kesimidagi tafovutlar tahliliga ko'ra, ko'p bolali oilalarda mehribonlik qadriyatlariga asoslangan shaxslararo munosabatlarda emotsional yaqinlik, empatik simbioz, konformistik persepsiya interpersonal aloqalarning psixologik induksiyasi vazifasini bajarsa, kam bolali oilalarning ko'p bolali oilalar borasidagi shaxslararo tasavvurlarida ota-onaning tig'iz ro'zg'or hamda ish grafigi bolalar bilan muloqot o'rnatishda psixologik baryer bo'lib xizmat qilishi natijalariga doir fikrlar aks ettirilgan.




**2-rasm. «Sizningcha koʻp farzandli oilalardagi er-xotinlarning juftlik sifatida munosabatlari qanday?» savoli javoblari (% da)**

2-rasmda «Sizningcha koʻp farzandli oilalardagi er-xotinlarning juftlik sifatida munosabatlari qanday?» nomli savolga koʻp bolali oilalaragi er-xotinlarning bergan javoblarga koʻra, farzandlar kamoli uchun birga yashashadi, bir-birini soʻzsiz his qiladi deb sanovchilar 137 nafar (46,30%), farzand oilani mustahkamlagani uchun ularda bolali boʻlish orqali hissiy yaqinlik yuqori deyuvchilar 33 nafar (11,10%), oiladagi tushunmovchiliklar faqat iqtisodiy omil hamda tarbiya borasidagi qarashlar sababidan boʻlishi mumkin tasdigʻini 55 nafar (18,60%), bir-biriga xiyonat qilish ehtimoli deyarli yoʻq, oila farzandlar soni sababidan ham mustahkam boʻladi mulohazasini 71 nafar (24,00%) sinaluvchi; kam bolali oilalaragi er-xotinlarning bildirgan fikrlariga koʻra, farzandlar kamoli uchun birga yashashadi, bir-birini soʻzsiz his qiladi deb sanovchilar 36 nafar (16,80%), farzand oilani mustahkamlagani uchun ularda bolali boʻlish orqali hissiy yaqinlik yuqori deyuvchilar 98 nafar (45,80%), oiladagi tushunmovchiliklar faqat iqtisodiy omil hamda tarbiya borasidagi qarashlar sababidan boʻlishi mumkin tasdigʻini 32 nafar (15,00%), bir-biriga xiyonat qilish ehtimoli deyarli yoʻq, oila farzandlar soni sababidan ham mustahkam boʻladi mulohazasini 48 nafar (22,40%) javoblari ifodalangan.

Tadqiqotda koʻp bolali oilalardagi er-xotin munosabatlarning psixologik xususiyatlari sifatida hissiy-emotsional simbioz, noverbal emotsio-sotsial persepsiya, farzand kamolini koʻrish motivatsiyasi yuzaga chiqsa, kam bolali oilalarning nazdida er-xotinlik munosabatlarini mustahkamlanishida farzandlar muhim indikator hisoblanadi. Shuningdek, koʻp hamda kam bolali oilalardagi er-xotinlarning qarashlaridagi oʻxshashliklar oiladagi iqtisodiy taʼminot yuzasidan sodir boʻlishi mumkin boʻlgan tushunmovchilik va xiyonat qilish ehtimolining deyarli yoʻqligi namoyon boʻldi.

3-rasmda «Sizningcha koʻp farzandli oilalardagi shaxslararo munosabatlarda qanday muammolar bor?» savoliga nisbatan respondentlarning munosabatlari berilgan.



**3-rasm. «Sizningcha ko'p farzandli oilalardagi shaxslararo munosabatlarda qanday muammolar bor» savoli javoblari (% da)**

3-rasmda «Sizningcha ko'p farzandli oilalardagi shaxslararo munosabatlarda qanday muammolar bor?» nomli savolga ko'p bolali hamda kam bolali oila vakillari tomonidan berilgan javoblarga ko'ra, ko'p bolali oilalar tasdiqlarida bolalar o'zaro hissiy yaqin bo'lishdan qo'rqish deb sanovchilar 57 nafar (20,00%), bolalar o'rtasidagi kuchli rashk, nafrat mavjud bo'ladi deyuvchilar 63 nafar (21,30%), tan olinish ehtiyojining balandligi, mas'uliyatsizlik javobini 71 nafar (24,00%), mustaqil qaror qabul qilishdan qochish javobini 105 nafar (35,50%) sinaluvchi; kam bolali oilalar javoblarida bolalar o'zaro hissiy yaqin bo'lishdan qo'rqish deb sanovchilar 36 nafar (16,80%), bolalar o'rtasidagi kuchli rashk, nafrat mavjud bo'ladi deyuvchilar 47 nafar (22,00%), tan olinish ehtiyojining balandligi, mas'uliyatsizlik javobini 86 nafar (40,20%), mustaqil qaror qabul qilishdan qochish javobini 45 nafar (21,00%) javoblarida ifodalagan. Shu bois ko'p hamda kam bolali oilalardagi shaxslararo munosabatlarda ko'p bolali oila vakillari farzandlaridagi ba'zi holatlarda mustaqil qarorlar qabul qilishdan qo'rqishni, bolalarning tan olish ehtiyojining yuqoriligini hamda siblinglarga rashk, xasadni tez-tez yuzaga chiqishini aytishgan.

**1-jadval**

**«Shaxslararo munosabatlar diagnostikasi» metodikasining ko'p va kam bolali oilalardagi farqlari (N-510)**

№	Shkalalar	O'rtacha ranglar		Statistik ko'rsatkich	
		Ko'p bolali oilalar (N-296)	Kam bolali oilalar (N-214)	U	p
1	Liderlikka moyillik	267,94	238,16	27936,5	0,023*
2	O'ziga ishonch	265,00	212,26	28809,5	0,003*
3	Talabchanlik	252,52	289,66	30744,5	0,045*
4	Ishonchsizlik	255,63	255,32	31591,5	0,981
5	Yon berishlik	284,08	243,53	29081,5	0,009*
6	Ishonuvchanlik	258,03	251,98	30880	0,646
7	Ko'ngilchanlik	250,07	263,07	30018	0,324
8	Rahmdillik	239,05	278,44	26745	0,003*

\* statistik tafovutlar mavjud

1-jadvalda liderlikka moyillik ko‘p bolali oilalarda yuqoriroq namoyon bo‘lib, bu oiladagi yetakchilik rolga da‘vogarlikning, uy yumushlarini bajarishda, bolalarga ko‘z-quloq bo‘lishda nazoratning qo‘lga olinish ahamiyati bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkinligi ( $U=27936,5$ ;  $p=0,05$ ) ko‘rinadi. Ko‘p bolali oilalarda bolalarning soni ota-onada o‘z rolli pozitsiyasiga nisbatan ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi ( $U=28809,5$ ;  $p=0,01$ ).

Shaxslararo munosabatlarda talabchanlik, ko‘p narsani kutish kam bolali oilalarda ko‘proq aks etishi aniqlangani holda, farzandlar sonining kamligi ham ularning bir-biridan, farzandlaridan ham kutuvlarini oshirib, mukammallika intilish kompleksining barqaror dinamikasiga olib keladi ( $U=30744,5$ ;  $p=0,05$ ). Yon berishlik ko‘p bolali oilalardagi juftliklarda ko‘proq ifodalanib, bolalarning fikrini e‘tiborga olishga intilish, jufti bilan hal qilinadigan yumushlarni taqsimlashda fikrlar xurfiqrliligiga amal qilish, nizolardan qochish orqali munosabatlarni saqlash kabilarni o‘zida muajassamlashtiradi ( $U=29081,5$ ;  $p=0,05$ ). Oiladagi bolalar sonining yetarlichaligi hisobidan birdek rahmdillikni ko‘rsatish holati ko‘p bolali oilalarga nisbatan tez-tez yuzaga chiqadi ( $U=26745$ ;  $p=0,01$ ).

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «**Ko‘p bolali oilalardagi shaxslararo munosabatlarni empirik tadqiq etish jabhalari**» deb nomlanib, unda ko‘p bolali oilalardagi er va xotin o‘zaro munosabatlarining psixologik determinantlari, ko‘p bolali oilalardagi shaxslararo munosabatlarga ta‘sir etuvchi ijtimoiy-madaniy omillar transformatsiyasi, ko‘p bolali oilalarda voyaga yetayotgan o‘smir yoshdagi farzandlar rivojlanishining psixosotsial asoslari hamda ko‘p bolali oilalardagi juftliklar o‘rtasida shaxslararo munosabatlarining psixologik korrelyatlari bayon qilingan.

## 2-jadval

### «Ota-onalik rolga ustanovka va munosabatni aniqlash» metodikasining ko‘p bolali oilalardagi jins tafovuti (N-296)

№	Shkalalar	O‘rtacha ranglar		Statistik ko‘rsatkich	
		Ko‘p bolali otalar (N-148)	Ko‘p bolali onalar (N-148)	U	p
1	Ota-onaning jabrlanuvchanligi	128,21	160,85	8032	0,001*
2	Bola faolligini rag‘batlantirish	135,93	156,15	8896	0,048*
3	Bola bilan bo‘ladigan muloqotdan qochish	132,89	158,00	8555,5	0,014*
4	Erning xotiniga e‘tiborsizligi	132,54	158,22	8516	0,012*
5	Boladagi shaxvoniylkni bosish	136,16	156,01	8922	0,050*
6	Onaning hukmronligi	178,94	154,32	9233,5	0,010*
7	Ota-onalarning bola hayotiga aralashuvi	132,63	158,16	8526,5	0,012*
8	Ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi do‘stona munosabat	188,46	160,70	8059,5	0,002*

\* statistik tafovutlar mavjud

2-jadvalda ota-onaning jabrlanuvchanligi ( $U=8032$ ;  $p=0,01$ ), bola faolligini rag‘batlantirish ( $U=8896$ ;  $p=0,05$ ), bola bilan muloqotdan qochish ( $U=8555,5$ ;  $p=0,05$ ), erning xotonga e‘tiborsizligi ( $U=8516$ ;  $p=0,05$ ), boladagi shaxvoniylkni

bosish ( $U=8922$ ;  $p=0,05$ ), ota-onaning bola hayotiga aralashuvi ( $U=8526,5$ ;  $p=0,05$ ) kabi ko'rsatkichlarda ishonchli farqlar qayd etilib, ko'p bolali oilalardagi onalarda farzand tarbiyasi, uy yumushlardan charchashni yaqqol ifodalash, bolaning faolligini rag'batlantirish evaziga uning psixologik rivojlanishini tezlashtirishga intilish, farzandlar bilan vaqt taqsimotini to'g'ri tashkil etishga intilish hisobidan ular bilan bo'ladigan muloqotdan qochishga harakat qilish, o'zida nomukammallik kompleksini his etgan holda erning unga nisbatan e'tiborsizligini ko'rsatish, boladagi shaxvoniyligni, uning irodasini bosishga urinish hamda bolaning hayotiga aralashuvini kuchaytirish kabilarda ustunliklari ifodalangan.

2-jadvalda onaning hukmronligini tan olish, uning bolalar tarbiyasidagi rolini inkor etmaslik jihatidan ko'p bolali oilalarning otalarida ustunliklar kuzatilib, oiladagi maishiy-xo'jalik ishlari hamda ayolning rollari taqsimoti jihatidagina onaning hukmronligini tan olish kuzatildi ( $U=9233,5$ ;  $p=0,01$ ). Ota-onalar va bolalar o'rtasidagi do'stona munosabatga intilish, ushbu munosabatlarni saqlash hamda mustahkamlash jihatidan ko'p bolali oilalardagi otalarning yetakchi roli alohida ta'kidlanib, bolaga bola pozitsiyasidan murojaat qilish, uning xohish-irodasini bosish o'rniga imkoniyatlar yaratish yuqori ko'rinish olgani ma'lum bo'ldi ( $U=8059,5$ ;  $p=0,01$ ) (2-jadvalga qarang). Tadqiqotimizdan o'rin olgan psixodiagnostik metodikalar orqali ko'p bolali oilalardagi er va xotin munosabatlarining psixologik qirralarini o'rganamiz. Xususan, shaxslararo munosabatlar diagnostikasi metodikasining ko'rsatkichlariga muvofiq, talabchanlik ( $U=9010$ ;  $p>0,05$ ), ishonchsizlik ( $U=9639$ ;  $p>0,05$ ), yon berishlik ( $U=9683$ ;  $p>0,05$ ), ishonuvchanlik ( $U=9325,5$ ;  $p>0,05$ ), ko'ngilchanlik ( $U=9898$ ;  $p>0,05$ ) hamda rahmdillik ( $U=10236,5$ ;  $p>0,05$ ) borasida er ham, xotin ham birdek shaxslararo munosabatlarga kirishishi ma'lum bo'ldi.

### 3-jadval

#### «Shaxslararo munosabatlar diagnostikasi» metodikasi natijalarining ko'p bolali oilalardagi jins farqlari (N-296)

№	Shkalalar	O'rtacha ranglar		Statistik ko'rsatkich	
		Ko'p bolali otalar (N-148)	Ko'p bolali onalar (N-148)	U	p
1	Liderlikka moyillik	162,26	140,12	8762,5	0,030*
2	O'ziga ishonch	170,39	135,17	7852	0,001*
3	Talabchanlik	160,05	141,47	9010	0,069
4	Ishonchsizlik	154,44	144,89	9639	0,349
5	Yon berishlik	142,96	151,88	9683	0,383
6	Ishonuvchanlik	157,24	143,18	9325,5	0,168
7	Ko'ngilchanlik	144,88	150,71	9898	0,569
8	Rahmdillik	149,10	148,13	10236,5	0,924

\* statistik tafovutlar mavjud

3-jadvalda berilgan ma'lumotlarga ko'ra oiladagi mavjud sharoit hamda farzandlar tarbiyasi borasidagi qarashlarni umumlashtirish orqali er-xotinlar o'zaro bir-birlari bilan munosabatlarda yon berishlik, rahmdillik ko'rsatish hamda kichik kamchiliklariga ko'z yumish holatlari ko'proq kuzatilar ekan. Liderlikka

moyillikning ko'p bolali oilalardagi oila boshliqlarida yuqori namoyon bo'lishi o'z so'zini o'tkazish, oiladagi barcha xo'jalik-maishiy yumushlarni o'z bo'yniga olish orqali oilani boshqarish, o'z ortidan farzandlarini yetaklash kabi jabhalarda namoyon bo'lgani sababidan deb xulosalash mumkin ( $U=8762,5$ ;  $p=0,05$ ). Munosabatlardagi o'ziga ishonch, fikrlar erkinligi, qat'iyatlilik kabi sifatning ko'p bolali oilalardagi erkaklarda yuqori ko'rinish olganini oilani boqish, ularning moddiy, ma'naviy ta'minotini qoplashga o'zida ishonchni his qilish orqali tasdiqlangani bilan izohlansa, ikkinchi tarafdin esa, aynan munosabatlardagi erkak tarafidan o'ziga ishonchning yuqori bo'lishi oilaviy muammolarni konstruktiv tarzda hal qilish, bir so'zli bo'lish orqali yakunlovchi qarorlar qabul qilish hamda imkoniyatlarini to'g'ri baholagan holda farzandlar sonini ko'paytirishdan qo'rqmaslik kabi jihatlarni o'z ichiga oladi ( $U=7852$ ;  $p=0,01$ ).

#### 4-jadval

#### Ko'p va kam bolali oilalarda kamol topayotgan o'smir yoshdagi farzandlarning shaxs xususiyatlari namoyon bo'lishidagi tafovutlar (N-205)

